

O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH VA BUNDA AXBOROT-TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI JIHLTLARI

*Boboxonova Shahlo Azamatovna
Jizzax davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
2-bosqich,203-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchilarni uzluksiz tarzda rivojlantirish yo'llari, bu yo'llardagi dolzarb masalalar va ularning maqbul yechimlari, o'qituvchilarning o'z ustida ishlash malakasini yanada rivojlantirish, ularning faoliyatida axborot-texnologiyalarning o'rni va ahamiyati ,axborot-texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ijobiy roli,innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi,metodika,innovatsion texnologiyalardan foydalanish malakasi,samaradorlik, pedagogik mahorat,kasbiy rivojlantirish,texnika,metod.*

Аннотация. в данной статье описаны пути постоянного развития учителей,актуальные вопросы и их оптимальные решения,дальнейшее развитие навыков учителей,роль и значение информационных технологий в повышении эффективности образования изучается в конкретных аспектах образовательного процесса.

Ключевые слова: *система образования, методология, умение использовать инновационные технологии, эффективность, педагогические навыки, повышение квалификации, методика, метод.*

Abstract. Is the continuous development of teachers in this article ways,current issues in these areas and their optimal solutions,further development of teachers skills,the role and importance of information technology in their work,the positive role of information technology in improving the effectiveness of education

specific aspects of the lim process are explored.

Key words: *education system, methodology, ability to use innovative technologies, efficiency, pedagogical skills, professional development, technique, method.*

Respublikamiz mustaqil suveren davlat sifatida o'z oldiga demokratik huquqiy jamiyat qurish, rivojlangan mamlakatlar orasida yuqori o'rinlarni egallashni maqsad qilgan ayni damda xalq ta'limi tizimi zimmasiga ham qator vazifalar yuklanadi. Mamlakat rivojlanishi yosh kadrlarning qay darajada bilimli va malakali bo'lishi bilan uzviy bog'liq. Mamlakatni har tomonlama rivojlanishida xalq ta'limi tizimining, jumladan, yosh kadrlarning o'rni beqiyos. Mamlakat kelajagi yosh avlodni tarbiyalash masalasi esa o'z-o'zidan o'qituvchi pedagoglarga borib taqaladi.

Yosh kadrlarning qay darajada malakali bo'lishi esa o'qituvchining bilimi va ko'nikmasiga, mahoratiga, ta'lim berish jarayoniga uzviy bog'liq. Shuning uchun dastavval o'qituvchi va pedagoglarning faoliyatiga, ularni kasbiy rivojlantirishga, har tomonlama mukammal bo'lishlariga, pedagogik mahoratga ega, ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalana olishlariga, texnologiyalar asrida yangi bilimlarni bilish va ularni kerakli vaqtda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishlari bosh masala bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi dastavval malakaga, ko'nikmaga ega bo'lishi juda muhim omildir. Chunki metodika bo'lmagan joyda ta'lim jarayonida ijobiy natijaga erishish mumkin emas. O'qituvchi o'zi o'rgatmoqchi bo'lgan biron mavzu haqida eng birinchi galda, o'zi to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, uni o'quvchiga yetkazishda qanday metodlarni qo'llash mumkinligi, o'quv jarayonida mavzuning qaysi jihatlariga alohida e'tibor berishi kerakligini, mavzuni o'tishdan maqsad nima ekanligini va mavzuni qanday metodlar, texnologiyalar orqali o'quvchiga tushunarli bo'lishini anglagan holda dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rsa, ijobiy natijaga erishish mumkin bo'ladi.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi uning kasbiy faoliyatiga oid bilimlarni

qay darajada mukammal egallaganida, darsni tashkil etish, loyihalash, baholash jarayonlariga oid tayanch kompetensiyalarni qay darajada o'zlashtirganida, o'qitish va tarbiyalash jarayoniga ilmiy yutuqlar va zamonaviy texnologiyalar bilan uzviylikda qay darajada tayyorgarlik ko'rganida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi „O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi P-6108-son farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan „Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, jamiyatda manaviyatli shaxslarni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqlarida ham o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan hamkorlikda ta'lim tizimini tashkil etishlari muhim va ahamiyatli ekanligi va buning uchun davlatimiz tomonidan shart-sharoitlar yaratilishi to'g'risida shunday deydilar: "Ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi".

Bu so'zlardan ko'rinadiki, yoshlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydigan o'qituvchilar faoliyati bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi islohotlar, o'qituvchilarni texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish va ularni rag'batlantirish kabilar hozir ayni avj pallasida.

Yoshlarni har tomonlama barkamol, komil shaxs sifatida tarbiyalash eng avvalo, o'qituvchilarning bosh vazifasi sanaladi. Ular ta'lim tizimida ham zamon

bilan hamnafas tarzda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil qilishsa, o'rganilayotgan bilimlar o'quvchi ongida yanada mustahkam qoladi. Chunki XXI asr texnika, texnologiyalar asrida zamonaviy texnologiyalarsiz dars o'tish orqali katta natijalarga erishish qiyin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmagan darsda quyidagi kamchiliklarga duch kelish mumkin:

- ta'lim tizimida mavjud bo'lgan bilimlar faqatgina nazariy o'tiladi, o'sha mavzuga nisbatan tushuncha paydo bo'lsa-da, o'quvchi ko'z oldida o'sha mavzu gavdalanmaydi;

- faqat nazariya ham o'quvchining o'sha fanga nisbatan qiziqishini so'ndiradi. Chunki, amaliyot yo'q joyda, nazariya katta natija bera olmaydi. Masalaning texnologiyalar vositasida o'quvchi ko'z o'ngida hayotdagidek aks etishi va oddiy gaplar bilan tushuntirilishi o'rtasidagi farq ancha sezilarli;

- o'quvchi zamonaviy texnologiyalarsiz o'tilgan darslar davomida texnologiyalarni o'rganolmaydi, zamon talabi bo'lgan texnikalardan xabardor bo'lmaslik esa o'quvchining zamon bilan hamnafas tarzda ta'lim olishiga va kelajakdagi faoliyatida salbiy ta'sir ko'rsatadi;

Axborot-texnologiyalarning ta'lim tizimidagi beqiyos rolini uning quyidagi afzallik tomonlarida ko'rishimiz mumkin:

- texnologiyalardan foydalanilgan dars jarayonida o'quvchi mavzu yuzasidan ko'p ma'lumotga ega bo'lishi bilan birgalikda, u haqida faqat tushuncha emas, balki o'sha mavzuga nisbatan ongida dunyoqarash shakllanadi;

- o'quvchi zamonaviy texnologiyalar bilan tanishadi, uning ijobiy tomonlarini o'rganadi va o'zida ham shunday texnologiyalardan ta'lim tizimida foydalanishdagi yangi qirralarni kashf etadi;

- texnologiyaning ijobiy tomonlari o'quvchining intellektual salohiyatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini orttiradi va ulardan foydalanishga intilish paydo bo'ladi;

- texnologiyalarga befarq bo'lmaslik va ulardan foydalana olish o'quvchining

kelajakdagi faoliyatida o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi;

• texnologiyalardan foydalanilgan dars jarayonida o'quvchilar diqqat-e'tibori ko'proq darsga qaratiladi, albatta, mavzuga oid innovatsion texnologiyalar to'g'ri tanlangan va amalga tatbiq etilgan bo'lsa;

Bunday samarali natijalarga erishishning eng asosiy talabi esa bu o'qituvchilarning dars jarayonida texnologiyalardan foydalanishidir. Bunda dastavval o'qituvchilarga texnologiyalardan foydalanish asoslari, dars jarayonida qo'llaniladigan metodlarni o'rinli qo'llay olish, mavzuni o'tish jarayonini o'quvchi tushunishi uchun sodda ammo ta'sir kuchi katta bo'lishi uchun juda mukammal tarzda tashkil etish kerak. Dars jarayonida ijobiy natijaga erishish asosan o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi texnologiyalargagina suyanib qolmasdan, o'z ustida tinmay ishlashi, o'zining kamchilik va nuqsonlarini bartaraf etishi, badiiy asar va publitsistik asarlar mutoalasini to'xtamasligi, o'zining ichki dunyosini, dunyoqarashini doimiy ravishda boyitib borishi, o'quvchilar yosh fiziologiyasidan kelib chiqqan holda ular uchun qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlar bilan qiziqishi, izlanishi, ularning psixologiyasini o'rganishi va ularga doim katta insonlardek emas, balki ular bilan tengdosh boladek munosabatda ham bo'lib turish psixologiyasini o'rganishi kabi bir necha muhim malakalarni egallashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev „Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri-yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz“ deganlarida ham aynan yoshlarni tilga olganlarida o'qituvchilarimiz zimmasida qandayin yuksak vazifalar yuklanganini chuqur his etamiz. Ilm-ma'rifat ulashadigan o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga bugungi kunda e'tibor va e'tirof juda katta. Har bir pedagog o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib, kasbining naqadar ahamiyatli va mas'uliyatli kasb ekanligini anglagan holda o'z zimmasidagi burch va majburiyatlarini a'lo darajada bajarsa, kelajak avlod tarbiyasi va ularning barkamol, komil shaxs bo'lib yetishishiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining „O'zbekiston ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qonuni;

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz”kitobi,2-bob;

3.Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Shodiyeva Matluba Jo'rayevnaning „Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiypedagogik jihatlari”mavzusidagi maqolasi.